



## O'ZBEKISTON SSRNING TASHQI SIYOSATDA TUTGAN O'RNI

**Karimov Otabek Talipjonovich**

*Guliston davlat universiteti*

*Tarix yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston SSRning Sobiq Sovet tuzumi davridagi tashqi siyosati va xalqaro aloqalari o'rganilgan. O'zbekiston respublikasining Sobiq SSSR tarkibidagi ittifoqchi qaram davlat sifatidagi mustaqil tashqi siyosat olib borish tizimidagi qarama-qarshiliklar va xalqaro aloqalarning cheklanishining oqibatlari yuzasidan tegishli masalalar ko'rilgan.

**Kalit so'zlar:** tashqi siyosat, totalitar tuzum, bolshevik, ittifoq, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, marginallik.

Har bir davlat va millatning tarixiy taraqqiyotida mustaqil davlatchilik va tashqi siyosat asosiy o'rin tutadi. Buni ta'minlash oson emas albatta. O'zbek davlatchiligi o'zining boy va shonli tarixida xalqaro munosabatlar tizimida faol o'rin tutgan. Tashqi bosqinlar, jumladan, dastlab Chor Rossiyasi va uning mantiqiy davomi bo'lgan Sovet totalitar tuzumi sharoitida faol tashqi siyosat va mustaqil aloqalar cheklanib qoldi. Bu davrda O'zbekiston tashqi siyosati to'liq ravishda metropoliya manfaatlariga moslashtirildi. Tabiiyki bu jarayonda O'zbekiston xalqaro aloqalarning ikkinchi darajali marginal davlati bo'lib qoldi.

Markaziy Osiyo, jumladan, Turkiston, Buxoro va Xorazm davlatlarining tub xalqlari necha asrlar davomida turmush tarzi va an'analari jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib keldilar. Buxoro va Xorazm XX asr 20-yillarining boshiga qadar mustaqil davlatlar bo'lgan. Bu mintaqa yagona zamini, o'z xo'jaligi, an'analari, dini, madaniyatining mushtarakligi bilan ajralib turgan. O'rta Osiyo davlatlaridan har birining ko'p millatli ekanligi, o'zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, qozoqlar va boshqa erli xalqlarning uchala davlat hududlarida tarqalib yashashi tarixan an'anaviy bo'lgan. Mana shu davlat tuzilmalari doirasida har bir xalq yoki alohida urug'lar xo'jalik hayoti tizimidagi o'z o'rnini egallab, o'zining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati bilan davlat va mintaqa ijtimoiy hayotining yaxlit zanjiridagi uzilmas xalqani tashkil etgan. Turkiston mintaqasining xalqlari shu zaminni qadimdan o'zlarining asl vatani deb bilganlar. Vatan yagonaligi hissi xalq ijodiyotida, an'analarda, madaniyatida o'z aksini topgan va shu mintaqada yashab turgan barcha xalqlarninga badiiy qadriyatiga aylangan.

Bu mintaqaning xalqlari birdir degan g'oya avloddan-avlodga o'tib, milliy etakchilar, jamoat arboblari va milliy ziyolilarning qarashlari hamda amaliy faoliyatlarida aks etdi. Hudud yaxlitligiga, xalqning birligiga xavf-xatar tug'ilgan kezlarda ana shu g'oya xuddi bir qalqondek bo'lib turdi, xalqlarning bir-biridan ajralib, uzoqshib ketishining oldini oluvchi omil bo'lib qoldi.



Mustabid sovet rejimi va bolsheviklar uchun esa Turkiston o'lkasini bo'lib tashlab, uni idora qilish qulay edi. Xususan, bu jarayon Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat 1924 yilda, asosan, mag'lubiyatga uchraganidan keyin o'zining so'nggi bosqichiga qadam qo'ydi. Tarixan tarkib topgan uchta davlatni tugatib turib, ularning o'rniga yangi davlatlar tuzish fikri o'lka va markazning rahbar xodimlaridan chiqdi. 1920-yilning boshlaridayoq TSRni bo'lib tashlash va milliy til belgisiga qarab muxtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasi qo'yilgan edi. Bu g'oya Turkkomissiya raisi Ya.Rudzutak tashabbusi bilan 1920-yil 15-yanvarda qabul qilingan tezislarda aytiladi. Bu tezislarda o'sha yilning iyun oyida RKP(b) Markaziy Komitetining «Partiyaning Turkistondagi vazifalari haqida» degan qarori loyihasiga kiritildi. Bu taklifni V.I. Lenin qo'llab-quvvatladi. Loyihaga bildirgan o'z mulohazalarida u Turkistonning «O'zbekiya, qirg'iziya, Turkmaniya»ga bo'lingan kartasini tuzish zarur deb ko'rsatdi. V.I. Lenin birmuncha keyinroq o'zi tayyorlagan boshqa bir loyihada o'z nuqtai nazarini o'zgartirib: «Respublikani (ya'ni Turkistonni) 3 qismga bo'lish oldindan hal qilib qo'yilmasin», deb uqtirdi. Milliy respublikalar va viloyatlar tuzishga ko'rsatma berilishi va uning siyosiy jihatdan asoslanishi Turkistonning ma'muriy-hududiy kartasini qaytadan ko'rib chiqish bolsheviklarning qaytadan tuzish siyosatidan o'lkada norozilik kuchayib borgan, mustaqillik uchun harakat ko'lami kengayib kelayotgani, milliy masala yuzasidan Kavkazortida boshlangan kurash aks sadosi va boshqa sabablarga ko'ra orqaga surilib turdi. 1920-yilga kelib O'rta Osiyoda TSRdan tashqari Buxoro va Xorazm Xalq Sovet respublikalari tuzilganligi ham muhim omil bo'ldi. Bu respublikalar tuzilganidan keyin ma'lum rahbarlar guruhi ularni ham hududiy qayta bichish doirasiga tortish rejalarini ilgari surdilar. Milliy respublikalar tuzish zarurligi g'oyasi tashabbuschilari uni (ya'ni, bu g'oyani) erli xalqlar hayotida tengsizlik mavjudligi, milliy mojarolar kuchayib borayotgani bilan asosladilar. Bu mojarolardan qutulish yo'li turkmanlar, qirg'izlar va boshqalarning milliy davlatini tuzish, deb e'lon qildilar, amalda esa bu chora-tadbir xalqlarni bir-biridan ajratib qo'yishdan boshqa narsa emas edi. Hududlarni qaytadan belgilash va chegaralash tarafdorlari til tafovutlari, milliy tafovutlarga diqqatni ko'proq qaratib, xo'jalikka oid, iqtisodiy omillarni, mavjud suv resurslari, sug'orish tizimlarining umumiy ekanligini kamroq hisobga oldilar. Umuman, siyosiy jihatlar birinchi darajali hisoblandi. Rahbar xodimlar orasidagi evropaliklar bilan tub xalqlar vakillari o'rtasidagi ixtiloflar, shuningdek, ayrim guruhbozlik ko'rinishlari mexanik tarzda O'rta Osiyo mintaqasi xalqlari o'rtasidagi munosabatlarga ko'chdi.

Rudzutak, Stalin va boshqalar O'rta Osiyoda milliy mojarolar mavjudligini uqtirdilar. Milliy masala sun'iy ravishda bo'rttirib yuborildi va davlatlar hududini tubdan qayta belgilash uchun hal qiluvchi asosiy dalil sifatida ilgari surildi. Turor



Risqulov Turkkomissiya va Ya.Ruduztak tezislariga qarama-qarshi o'laroq, va bir guruh milliy etakchilar 1920-yildayoq turkiyzabon xalqlar yagona bo'lib, ularning tarixiy ildizlari, dinlari, an'analari va madaniyati mushtarakdir, Turkistonni alohida qismlarga ajratib bo'lmaydi, degan g'oyani ilgari surdilar. Biroq bu fikrni bolshevikcha Markaz inkor etib, uni panturkizm, panislomizm, burjua millatchiligi deb baholadi.

Mintaqani milliy-hududiy jihatdan qayta tuzish masalasi partiya organlari tomonidan ishlab chiqildi va amalga oshirildi. O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro) umummintaqani qamrab oladigan chegaralanish zarurligi to'g'risidagi masalani respublikalar partiya organlari, partiya xodimlari muhokamasiga qo'yishga zo'r berib intildi. Bu holat, xususan, SSSR tuzilgach (1922-yil 30-dekabr) kuchaydi.

Sobiq Sovet davlati yopiq totalitar davlat bo'lib, Ittifoqqa qo'shib olingan davlatlar davlatlar, jumladan O'zbekiston davlatining ham ichki va tashqi siyosati to'liq totalitar tartiblarga moslashtirilgan edi.

O'zbekiston SSRning tuzilishi «o'zbek xalqining milliy davlatchiligi tashkil qilindi», degan fikrni anglatmaydi. SSSR tarkibidagi O'zSSR amalda hech qanday suverenitet va mustaqillikka ega emas edi. O'zSSR tashkil etilayotgan vaqtlardayoq uning oldiga, asosan, Markazning manfaatlariga xizmat qilish, SSSRning markaziy rayonlariga xom-ashyo etishtirib berish kabi vazifalar qo'yilgan edi. SSSR inqirozga yuz tutgan va parchalangan paytgacha bu vazifalar o'z kuchini yo'qotmadi.

Ittifoq konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan tashqi munosabatlarga mustaqil ravishda kirishish, ular bilan shartnomalar tuzish va diplomatiya vakolatlarini ayirboshlash, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan suveren respublika hisoblanardi. Biroq konstitutsion tarzda e'lon qilingan tashqi siyosiy tashabbus huquqi quruq targ'ibot xususiyatiga ega bo'lib qolaverdi. Real hayotda O'zbekiston unitar (qo'shma) Sovet davlati bo'lgan mustabid tuzumning imperiyacha kishanida bo'lib, xalqaro maydonga mustaqil ravishda chiqish imkoniyatlaridan butunlay mahrum edi, tashqi siyosatga doir davlat institutlariga, tashqi aloqalarni o'z ixtiyori bilan o'rnatish huquqiga ega emasdi. Xalqaro aloqalar faqat Moskvaning ruxsati va qattiq nazorati ostida amalga oshirilardi. Natijada respublikaning tashqi aloqalari, bordi-yu, namoyon bo'lsa ham nihoyatda cheklangan va sinfiy- mafkuraviy yo'nalishi bilan ajralib turar, avvalboshdanoq mustaqillikdan mahrum etilgandi.



## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Тулунов.Ж.Н. Некоторые вопросы диалектики национальных отношений.М. Наука. 1983.
2. Киняпина Н., Блиев М., Дегоев В. Кавказ и Средняя Азия во внешней политике Советского государства .М.1984.
3. Раджабов Р.А. Советско-афганские отношения (По материалам периодической печати на узбекском языке 1919 - 1931 гг.). Автореф. дис. . канд. ист. наук. Ташкент.1989.
4. Из истории строительства социализма в Узбекистане. Историография вопроса.1991.
5. Алимова.Д. А. Муштабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати:тарих шохидлиги ва сабоқлари (1865 -1990 йиллар). Т. Шарқ,2000.
6. Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TURKISH EMPIRE. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(10), 25-31.
7. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.
8. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.
9. Бобомуротов Т. М. Репрессивные органы как инструмент колониальной политики Советской власти Дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. Т. 2016
- 10.Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. Марказий Осиё тарихи ва маданияти, 1(1), 122-125.
- 11.Nazarov, OR, va Nematov, RAO (2020). O'ZBEKISTONNING YUNESKO BILAN HAMKORLIK TARIXIDAN. Guliston davlat universiteti axborotnomasi , 2020 (4), 45-49.
- 12.Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). QADIMGI DAVRLARDAGI KO'CHMANCHI SAK, MASSAGET QABILALARI HAQIDA MUSHOHADALAR. IQRO JURNALI, 2(2), 597-600.
- 13.Omongaldi o'g'li, O. I. (2022). QADIMGI XORAZM SIRLI QAL'ALARI. PEDAGOGS jurnali, 10(4), 182-185.
- 14.Iskandar, O. (2022). XIVA TARIXI VA RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI. PEDAGOG, 1(3), 327-329.